



Kim ko 'p kitob o 'qiydi?



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAMLAKATIY KITOB PALATASI
INV.№

(8-betga qarang)

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!



O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN - 2010-6092



2009-yil
23-mart
N:12
(66709)



«Yangi avlod - 2009» bolalar ijodiyoti festivali g'olibasi Mushtariy Olimjonova

DUSHANBADA BIZ 27,5 MILLIONDAN OSHDIK

O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 27,5 milliondan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning o'zida 508,9 ming kishiga o'sdi. Ayniqsa, qishloq joylarida aholining ko'payishi yuqori darajada bo'lib, o'sish ko'rsatkichi oldingi yilga nisbatan 65,2 foizni tashkil etdi.

10 MILLION YOSHLAR...

14-15 mart kunlari umumxalq hasharida 10 milliondan ziyyod yoshlар ishtirok etdi.

Jumladan, siz bolalar va o'smirlar ham unda faoliik ko'rsatdingiz. «Uying obod - ko'ngling shod». Yanada obod bo'lsin, shu aziz Vatan!



Husanboy Avvalov olgan surat

«GULLAYOTIR BOG'DA BINAFSHA...»

Bolalar, do'stingiz ko'pmi, deb so'rashsa, albatta, deb javob berasiz. Mamlakatimizda turli millat vakillarining o'zarо inoq yashayotgani Sizu bizning baxtimiz.

«Oltin darvoza» musiqali teatr ijodiy jamoasi do'stlikni tarannum etuvchi ana shunday kechani tashkil etdi. Kecha O'zbekiston Badiiy Akademiyasi fotoko'rgazmalar zalida o'tkazildi.

DUSHANBAGACHA

U haqidagi maqolani gazetaning keyingi sonida o'qiysiz

«PREZIDENT ASARLARI BILIMDONLARI»

Maktabimizda ana shunday to'garak bor. Unda biz Yurtboshimizning asarlarini o'rganib, ulardan sahna ko'rinishlari tayyorlaymiz. Bundan tashqari, kompyuter, «Yosh jurnalistlar» to'garaklari ishlab turibdi. Iskandar aka Asqarov, Kimyo opa Rahimova, Hilola opa Rahmonova, Yayra opa Sultonovalar dars o'tishni qoyillatishadi. Nodirbek aka Shokirovning sa'y-harakatlari tufayli esa maktabimiz chiroy ochib bormoqda. Ularning aytishlaricha, bu yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»da biz uchun yanada ko'plab sharoitlar yaratilar ekan.

*Nilufar VALIJONOVA,
Nazokat MALIKOVA,*

Andijon viloyati, Baligchi tumanidagi 44-maktab o'quvchilari

«TONG YULDUZI»DA SUMALAK BAZMI

- - Salim, kel, yo'l-yo'lakay tosh yig'ib ketamiz.
- Axir, «Tong yulduzi»dagi sumalakka anchamuncha tosh ketadi. Eh-hey, bilasanmi, shahrimiz-u viloyatlardagi qanchadan-qancha maktablardan o'quvchilar kelishadi, bu bazmga!
- - Ha, bu bayramga a'lochi va eng ko'p xat yozgan tengdoshlarimizni taklif qilishibdi. Ular Navro'z haqidagi bilimdonliklari borasida musobaqalashishar ekan...

Mana, tahririyatda «Qizlar akademiyasi»ning chaqqon qizlari isjni boshlab yuborishibdi. Ular sumalakka solinadigan toshlarni tozalab yuvishar ekan, jizzaxlik muxlisamiz Shohsanam Bo'riyeva gap boshladi. U sumalak haqida she'r yozgan ekan:

- Sochlarmiz jamalak,
Suyganimiz sumalak,
Uning nomi-chi asli,
Bilsangiz gar - «si malak».

Darhaqiqat, Zafarobod tumanidagi 2-maktab o'quvchisi Shohsanam aytganidek, sumalak o'ttiz malak so'zidan olingan. Bu haqidagi afsonani yaxshi bilasiz-ku, ana o'sha-da! Quvnoqqina tengdoshingiz Yulduz Ochilova esa o'zi tahsil olayotgan Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi 18-maktabda bo'lib o'tgan «Siz tarixni bilasizmi?» nomli tanlov haqida so'zlab berdi. «Bu bayramda biz qadimiyl urfatlarimizni namoyish etdik. Laparlar, yor-yorlar aytik», - deydi Yulduzzon. Ha, Navro'z bayrami azal-dan qizlar-u momalarimizning laparlarisiz o'tmagan.

Bu orada qozon tagiga olov yoqayotgan o'g'il bolalar ham suhbatga qo'shilishdi. Axir, Navro'zda ularga ham mazza-da! Ot choptirishadi, kurash tushishadi. Bobur Ubaydullayev TTYSI qoshidagi akademik litsey o'quvchisi. U o'zi yashaydigan viloyatda bu bayram qanday o'tkazilishi haqida so'z ochdi:

- Samarqandda Navro'z sayllari o'zgacha o'tadi. Chunki, bayram tantanalarida chet ellik mehmonlar ham ishtirok etishadi. Ular uchun milliy taomlar ko'rgazmasi, folklor ansambollarining chiqishlari namoyish etiladi. Jizzaxda esa Navro'z kuni kech tushganda barcha gulxan atrofiga yig'ilib, yaxshi niyatlar qilar ekan.


Boburjonning gapini Nodira tasdiqladi. U Jizzax viloyati, Orltega tumanidagi 14-maktabdan kelgan-da! Aytishicha, uning maktabida Navro'zga bag'ishlangan sinflararo tanlov bo'libdi. Maktabida sumalak tayyorlanib, o'quvchilar mazza qilishibdi.

Nihoyat, qozonda bizning sumalagimiz ham qaynay boshladi. Unga turli viloyatlardan mehmon bo'lib kelgan eng fidoyi

Qishloq maktablarida

POYTAXT DARVOZALARI

Toshkentning 2200 yilligiga



o'qituvchilarimiz bosh-qosh bo'lishdi. Qizlar chug'urlashgancha, «men kavlay»ga tu sh i s h d i . Qashqadaryo l i k M a h b u b a tengdoshlariga ko'k somsa tarqatar ekan: «Tong yulduzi»ning sumalagi zo'r chiqadi, deya qo'li bilan ishora qildi. Biz esa uni rasmga tushirdik, qarang! So'ng bolalar birlashib ashula aytishdi:

*Yugur-yugur men turay, hey lola,
Sochingni gulga o'ray, hey lola,
Senga kelgan baloga hey lola, yor ey,
O'zim muftalo bo'lay, hey lola!*

Ayniqsa, o'g'il bolalar «Kim oladi-yo, shuginani-yo»ga raqsga tushishganida, davra zavqqa to'lib ketdi. Tonggacha qozonda sumalak, davrada suhbat-u, o'zin-kulgu qaynadi. Sumalak esa Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 38-maktab o'quvchisi Mahbuba Pardayeva aytganidek zo'r chiqdi! Siz ham tahririyatimizga keling, sumalagimiz hammaga yetadi!

Sayyora JO'RAYEVA

Ularning nechta bo'lganini bilasizmi? Nodir degan sinfdoshingiz tog'asidan shu to'g'rida so'rasha, u kishi: «Buning uchun «Tong yulduzi» gazetasini o'qib borish kerak», debdilar. Bir hisobda to'g'ri javob. Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, biz poytaxt tarixi, o'tmishi bilan sizlarni tanishtirib boryapmiz. Bugun sizlarga Toshkent darvozalari haqida so'zlar ekanniz, avvalo, juda ko'p manbalarda ularning soni 12 ta bo'lganini aytib o'tmoqchimiz. Xo'sh, ular qaysilar? Keling, birlashib sanaymiz: 1) Labzak, 2) Taxtakul, 3) Qorasaroj, 4) Sag'bon, 5) Chig'atoy, 6) Ko'kcha, 7) Samarqand, 8) Kamolot, 19) Beshyg'och, 10) Qo'ymas, 11) Qo'qon, 12) Qashqar. Bu o'rinda shu narsani qayd etib o'tish kerakki, darvozalar joy nomlari yoki yo'naliishiga qarab belgilangan. Darvozalar qorong'i tushishi bilan yopilgan va ertalab tong saharda ochilgan. Ularning yonida maxsus xonalar, ustlarida qorovulxonalar, hatto do'mbiralar saqlanadigan joylar ham bo'lgan; shaharga kirib-chiquvchi karyonlarning ro'yxatini yuritadigan bojxona ham ishlab turgan. Darvozalar oldida shaharga keluvchi martabali mehmonlarni kutib olish juda tantanali o'tgan. Amir Temur zamonida darvozalar mas'ulligi mahallalar zimmasiga yuklatilgan.

Agar ota-bobolaringiz, buvijonlaringiz darvozalar to'g'risida rivoyatlar so'zlab berishsa, bizga yozib yuboringlar!

ENG YAXSHI O'QUVCHI KIM?

Maqolani o'qisangiz, darrov bilib olasiz. Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan «O'quv yilining eng yaxshi o'quvchisi» tanlovi o'tkazildi. Buxoro tumanidagi 42-maktabning 9-sinf o'quvchisi Mahbubaxon Mo'manova tanlov g'olibasi bo'ldi.



Bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga intilayotgan tengdoshingiz tasviriy san'at va sport bilan jiddiy shug'ullanadi. «O'zbekiston kelajagi mening tasavvurimda» yosh musavvirlar tanlovida faxrli o'rinni egalladi. 2008-yilda esa «O'zbekiston – Vatanim manim» insholar tanlovida qatnashib, viloyatda birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Sportning taekvando turi bo'yicha viloyat ochiq championati g'olib. II-Paraolimpiya o'yinlarini yuqori darajada tashkillashtirishdagi faolligi uchun 1-darajali diplom sohibasi.

Shuningdek, maktabdagi «Yosh nihol» to'garagi tashkilotchisi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashining faol a'zosini.

Bugungi kunda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga da'vogarlik qilayotgan sara qizlarning son-sanog'i yo'q. Bayram arafasida saralarning sarasi aniqlandi. Ular orasida Mahbubaxonning ham borligi e'tiborlidir.

Tinib-tinchimas tengdoshingizning har doim va hamma sohada ENG YAXSHI bo'lib qolishiga umid qilamiz.

Feruza SOYIBJON qizi

VIRUS

(Hajviya)

- Oyijon, tug'ilgan kunimga 17 ta o'rtog'imni taklif qildim, maylimi? - dedi o'g'lim Farhod erkalanib.

- Men taniydigan bolalarmi?

- Ha, hammasini tanisiz. Bah - partadoshim, Qadi - sindkom, Raqi - karatist champion, Saqi - kompyuterchi, Dili - sindrafahbarimizning o'g'li, Jas - ko'chaning boshidagi sindfoshim, Yodi - Pitakni qo'shnisi, Joji - anuv kuni adasini moshinasini minib kelgan bola, Husni - tog'amning o'g'li, Murik - sindfoshingizning o'g'li, Dami...

- E, to'xta, namuncha bidirlaysan, bu qanaqa ro'yxat, hech narsa tushunmadim, o'zimizning tilda gapir, - dedim boshimni ushlab.

- Shoshmanoyijon, qizlarimizni ham aytib olay, Nasi - menga matemni ishlab beradi, Poti - inglizchani o'rgatadi, Karini bilasiz, Rahi - inshoni yaxshi yozadi, Azi - videokamerasi bor, Ziyo - hamma isjni tashkillashtiruvchi, Hami, Xoli, Mohi - pishir-kuydirga qarashadi. Sado bilan Saboni vaqt yo'q ekan. Ammo, Mali aytdi...

- Nimani aytdi, o'sha Mami...

- Mamimas, oyi, Mali, u aytdiki, Mami bugun repititorga borarkan... Voy, Vali bilan Nabini taklif qilish esimdan chiqibdi, - shoshib qoldi Farhod.

- E, Xudoga shukur, nihoyat tanish bolalar ham uchradi-ya, yengil nafas oldim. - Ustozlaringdan kimni aytding?

- Sinf rahbarimiz Jami Jalolovichni.

- Demak, men uch kishilik dasturxon tuzayveraman, - dedim oshxonaga otlanib.

- Voy-voy, oyijon, hazillashyapsizmi, men 17 kishi dedim-ku?

- Qanaqa 17 kishi? Nabijon, Valijon va sindrafahbaring, bor-yo'g'i shular shekilli, - talmovsiradim, ataylab.

- Oyi, shuncha bolani aysamu, nima, siz o'qigan paytda maktabda bunaqamasmidi? Nega tushunmaysiz? - yig'lagudek bo'ldi o'g'lim.

- Odamga o'xshab tushuntir-da, bo'lmasa. To'tiqushdek sayrab ketding, kim aytadi seni shoir bola, deb.

- Ha bo'pti, unda boshqatdan aytaman, yaxshilab eshitting. Bah - Bahodir, Qaqi - Qahramon, Paqi - Faxriddin, Baqi - Baxtiyor, Dili - Dilmurod Jas - Jasur, Yodi - Yodgor, Hoji - Hojakbar, Husni - Husniddin, Dami - Damir, Murik - Murod - xuddi imlo lug'atidek dona-dona qilib aytay boshladi u, -Nasi - Nasiba, Nai - Naima, Napi - Nafisa, Kari - Karima, Rahi - Rahima, Azi - Aziza,

QIZIQARLI
MA'LUMOTLAR

Tengdoshingiz Mirkamol Ummatqulov Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 65-maktabning 8-sinf o'quvchisi. U bo'sh vaqtlarida qiziqarli ma'lumotlarni to'plashni yaxshi ko'r ekan. Ushbu ma'lumotlarni Sizning e'tiboringizga havola etmoqdramiz. O'laymizki, ularni o'qib o'zingizni qiziqtirgan savollarga javob topa olasiz.

ENG KATTA CHO'L

Bilasizmi, dunyodagi eng katta cho'l bu Sahroi Kabir bo'lib, u Afrika qit'asining 20 foizini tashkil etadi.

O'RGINCHAKNING
KO'ZI NECHTA?

Hashoratlar hayoti bilan tanishmisiz? Biz bilgan o'rginchakning ko'zi beshtadir. Chigirtkaning esa qulog'i tizzasida joylashgan bo'ladi. Pashsha esa bir oyog'ida 100 dan ortiq mikrobnii saqlab, insonlarga zarar yetkazadi.

DENGIZ HAYVONLARI

Dunyodagi eng kichik dengiz hayvoni plankton bo'lib, uning ma'nosini yunoncha «adashib yuruvchi» deganidir. Eng qizig'i shundaki, dunyodagi eng yirik hayvon ko'k kit planktonlar bilan oziqlanadi.

ONA

«Jannat onalarning oyog'i ostidadur»

Onaning farzandi necha kundan beri isitmalar edi. U bolasi bilan kasalxonaga yotdi. Shifokorlar bolaga yaxshi qarashar, lekin uning issig'i tushmasdi. Ona farzandi tepasida o'tirar va unsiz yig'lab, ichi-ichidan nido qilardi: «Bolam ko'zingni och! Dardingni olay. Qayering og'riyapti? Koshki bilsam». Onaning bu chin dildan qilgan nidosini Olloh eshitdi.

Nihoyat, farzandining issig'i tushdi. Ona yana yig'lardi, lekin bu sevinch ko'z yoshlari edi. Uning br kechalik bedorlik haqqini farzandi umrbod xizmat qilsa ham uza olmas.

S.M.ALIMBOYEVA,
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti
«Siyosatshunoslik»
fakulteti 1-bosqich talabasi

Ziyo-Ziyoda, Xoli-Xolida, Hali-Halima, Mohi-Mohira.

— Ha, shunday demaysanmi, to'ppa-to'g'ri, chiroli ismlari bor ekanu, sen bo'lsang tilinigni burib, meni qiyabsan. Ana endi tushundim, rebusingga. Mami — ularning oyilar bo'lsa kerak, Pati dadalari bo'lsa kerak-da.

Farhod sharaqlab kului. — Zo'rsiz, oyi, Mami — oyilar emish, bolalar eshitsa qotishadi-da, o'ziyam. Oyi, yaxshilab eslab qoling. Mami — Mamlakat degan qaqajon qizimiz, o'zbekchadan ko'ra, inglizchani yaxshiroq tushunadi. Mami Malikaga aytib ketibdi. Mali, e Malika bu haqda sindf rahbarimiz Jami, e, «tfu»



Jamshid Jalolovichga tushuntirdi.
Shu choq telefon jiringladi. Yugurib borib,

Navro'zda ginalar ortda qoladi. Do'stlik rishtalari yanada mustahkamlanadi

UV VAZIFASIGA NAVRO'Z MAVZUSI

O'qituvchimiz Dilfuza Olimjonova uy vazifasi qilib «Navro'z bayrami haqida nimalarni bilasiz?» mavzusida yozma ish yozishimizni topshirdilar.

Topshiriq bahona milliy bayramimiz Navro'z haqida o'zim bilmagan bir qancha ma'lumotlarni o'rganib chiqdidi.

Eng qadimiy kitoblardan biri bo'lgan «Avesto»da Navro'z bayrami haqida yozilgan ekan. Hatto shu bayramning nishonlanishi qaysi kunga to'g'ri kelishi ham belgilab berilgan. Bunga asos qilib Yerning Quyosh atrofida aylanish harakati olingan. Xuddi shu kuni kun va tun tenglashadi. Bu kun 21-martga to'g'ri keladi. «Navro'z» so'zi «Yangi kun» degan ma'noni anglatadi. Bu kunda ginalar ortda qoladi. Do'stlik rishtalari mustahkamlanadi.

Fursatdan foydalanib, men barcha tengdoshlarimni Navro'z ayyomi bilan muborakbod etaman.

A'zambek KARIMOV,
Sirg'ali tumanidagi 6-sonli maktabning
6-«K» sinf o'quvchisi

ENDI BAHOR KELGAN
EDI-YA...

Fasllarning kelinchagi bahorning kirib kelishi hovlidagi barcha daraxtlarni gullatdi. Tonggi shabbodadan daraxtlar shoxlari ohista silkinib, gullarining ifori olamni tutadi. Osmonu falakda uchib yurgan beg'ubor qaldirg'ochlar o'z shodligini yashirolmay, chug'urlab qo'shiq kuylashar edi. Ular nozik qanotlarini qoqib, yaxshi insonlar xonadoni peshayvonlariga in qo'yib, cheksiz muhabbatlari mevasi bo'lgan bir just polaponlarni dunyoga keltirishdi. Hayotdagi eng katta baxtga

muyassar bo'lgan juft qaldirg'ochlar bir-birlariga suyanib, tinimsiz mehnat qilib, bolalari qornini to'yg'izishar edi. Tong otar payti birdan qaldirg'ochlar tinchiz buzilib, chug'ur-chug'uri olamni buzguday bo'ldi. Ona qaldirg'och iniga o't ketganini sezdi, polaponlarini himoya qilishga urindi. U bolalari tomon talpinar, ota qaldirg'och esa bunga yo'l qo'ymas edi. Ona qaldirg'och o'zini olovga urdi, olov battar kuchaydi...

Ko'z o'ngida farzandlari, justi

y o n a y o t g a n i g a chidolmagan ota qaldirg'och ham o'zini olovga urdi. Qaldirg'ochlarning bahoriy umidlari chilparchin bo'ldi. Qushlarning bir-biriga bo'lgan sadoqatini ko'rib ko'zlarimga yosh qalqidi. Essizgina qushchalar, bahor endi kelgan edi-ya...

Zumrad
RIXSIYEVA

telefonni oldim, jiyanim ekan:

— Assalomu alaykum, Sali xola, bu men, Noziman. Anuv, haligi buvim aytilarki, qo'shningizdan 10 kilo pami olib qo'yarkansiz. Kechqurun Huzur tog'am velekda borarkanlar, berib yuborarsiz. Mayli, xola, xayr, aymoqchi, Faraga salom, deb qo'ying.

— Tavba, bu yerda ham shu jumboq. O'lay agar, biron ta gapiga tushungan bo'lsam, dedim peshonamdag'i terni artgancha go'shakni qo'yarkanman.

— Nimani tushunmadingiz, tanish odammi o'zi? — hayron bo'ldi Farhod.

— Ha, 10 kilo pami olib qo'ying, Paraga salom aytning emish.

— Voy, oyijon, boyadan berib nimani tushuntiryapman. Pami bu pamidor, qo'shnikim Sariklar sotadi-ku.

— Yo'q, u Sari demadi, Paraga salom dedi.

— Ha, — rangi o'chdi o'g'limning. — U ham bilarkan-da. Oyi, Para emas, Fara, Farhod, ya'ni men. Kim edi o'zi telefon qilgan?

— Kim bo'lardi, qaqajon Nozi, e, xudo-ey, odamni jinni qilasizlar-a, xollangning qizi Nozima, demoqchiydim. Yoqimsiz odat yuqumli bo'ladi, deb shuni aytishadi-da, chaqir, chaqir hamma o'rtoqlaringni, o'zim bir tarbiyalab qo'yay, dedimu, shoshilib oshxonaga o'tdim.

Muhabbat HAMDOVA



TEST

1. «Navro'z» so'zi qaysi tildan olingan?

- A) Arab tilidan
- B) Fors-tojik tilidan
- C) Turkiy tildan

2. «Navro'z Yer haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan zamondan boshlab shaklangan» deb kim e'tirof etgan?

- A) Beruniy
- B) Navoiy
- C) Ibn Sino

3. Afsonalarning aksariyatida Navro'z kimming nomi bilan bog'lanadi?

- A) No'shiravon
- B) Firdavsiy
- C) Jamshid

4. «Navro'znomasi» asarining muallifi kim?

- A) UmarHayyom
- B) Yusuf Hos Xojib
- C) Beruniy

5. Har tunung qadr o'lbun, Har kunung o'lsun Navro'z, Bayt muallifini toping.

- A) Navoiy
- B) Ogahiy
- C) Bobur

6. Navro'z quyosh yili taqvimi bo'yicha qaysi oydan boshlanadi?

- A) Muhamarram oyidan
- B) Hamal oyidan
- C) Rajab oyidan

7. Navro'z onam quyosh qizi, oy qiziday,

- A) Quddus Muhammadiy
- B) Kavsar Turdiyeva
- C) Po'lat Mo'min

8. Navro'z kunida tug'ilgan bolaga qo'yiladigan ism?

- A) Navro'zbek
- B) Navro'zoy
- C) A va B javoblari

9. Navro'z qaysi kuni kirsa, yomg'ir ko'p yog'adi. Sovuq qattiq, qish uzoq bo'ladi?

- A) Shanba
- B) Dushanba
- C) Juma

10. Avval yuragingga mo'ralaydi u, So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z. Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,

- A) Demak, ... keldi,
- B) Kelmoqda (A. Oripov)
- C) Ko'p nuqta o'rniha mos so'zni topib qo'ying.

- A) Navro'z, Navro'z
- B) Bahor, bahor
- C) Bahor, Navro'z

Gazetamizning o'tgan sonida berilgan test savollariga bilimdon o'quvchilarimiz o'z javoblarini yo'llashgan. Quyida to'g'ri javobni topgan o'quvchilarning ism-familialarini e'tiboringizga havola etamiz.

1. Mahfuzaxon Jaloliddinova — Andijon viloyati, Andijon tumanidagi 24-umumta'limg maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi.

2. Gavhar Shuhratova — Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 18-umumta'limg maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi.

3. Diyora Jo'rayeva — Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 260-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.

4. Elyor Sirojiddinov — Namangan viloyatidagi 2-maktab-internatning 9-«A» sinf o'quvchisi.

KITOBIM -
OFTOBIM

Men kitobman oftobman,
Sizlar uchun xitobman.
Meni o'qing qiziqib,
Ilm-fanga qunt qilib.



Menga yozmang, chizmangiz,
Uvolimga qolmang siz.
Chiroqman qalbingizga,
Oftobman yo'lingizga.

Muxlisa MUHAMMADJONOVA,
144-maktab o'quvchisi

UYALIB QOLDI

Alijon birdan
Ko'chaga shoshdi.
Pulni o'g'irlab
Devordan oshdi.

Onasi sezib,
Tez ushlab oldi.
Alijon rosa
Uyalib qoldi.

Ilhomjon IBROHIMOV,
Jizzax shahridagi, Parda Hakimov nomli
12-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi



NAVBAHOR

Har yon bo'lib, lolazor,
Navbahor kirib kelar.
Dilga orom baxsh etib,
Shabada mayin esar.

Bahorning yomg'irlari,
Biram yog'ar beg'ubor.
Ertal sahar taralar,
Gullardan xushbo'y ifor.

Maftuna XOLMATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod
tumanidagi 77-maktabning 7-«D» sinf o'quvchisi

KICHKINTOYLAR BOG'I BOR

uddalashdi.

Kichkintoylar bog'i yaratildi, maktab atrofiga 96 tup archa, 50 tup mevali daraxtlar ekildi. 9-sinf o'quvchilari tomonidan esa an'anaga ko'ra «Bitituvchilar bog'i» barpo etildi.

Navro'z hamisha ilk qadamlaridan qatta-yu kichikni ezzulikka, mehnatsevarlikka boshlaydi. Elimizning qadriyatlar bo'lmish hashar shu kuni elga juda yarashdi.

Muzaffar AHMEDOV

BO'RI BILAN QO'ZICHOQ

Bir kuni qo'zichoq o'rmonda yo'ldan adashib qolibdi. U yoqqa-bu yoqqa yugurib, yo'ini topa olmabdi. Juda qo'rqib ketganidan ma'ray boshlabdi. Uning ovozini eshitib qolgan och bo'ri ajoyib tushlikni uchratganidan juda ham xursand bo'lib ketibdi.

- O, janob bo'ri, - debdi qo'zichoq tizzalari qaltrab, - iltimos, uyimga yo'li ko'rsatib yuboring.

- Uyinga yo'l ko'rsatib yuboraymi? - debdi bo'ri istehzo bilan. Men ochman, seni yegim kelyapti. Voy, shunaqayam ajoyibsani-ki...

- Iltimos, janob bo'ri, - debdi qo'zichoq. Meni yemang, ketkazib yuboring, iltimos.

- E, yo'q, - debdi bo'ri, - seni judayam yegim kelayapti, - shunday degancha, qo'zichoqqa tashlanibdi. Lekin shu payt qo'zichoqning xayoliga ajoyib bir fikr kelibdi.

- O, janob bo'ri, -

debdii u - sizni o'rmondag eng yaxshi hofiz deb eshitgandim. Men raqsga tushishni yaxshi ko'raman. Iltimos, men uchun kuylab bering. Raqsga tushgim kelayapti. Bu o'limim oldidan so'nggi raqsim bo'lardi.

Bo'ri maqtovni juda xush ko'rар, buning ustiga o'zini o'rmondag eng zo'r qo'shiqchi deb hisoblar ekan.

- Ha, mayli, - debdi u maqtovdan taltayib, ora-chorada tushlikdan oldin qo'shiq aytib turishim rost. Bugun juda ochman, lekin, seni yeyishdan oldin bitta qo'shiq ayta olsam kerak.


Qani, o'yinga tush. Bu sening so'nggi marotaba raqsga tushishing.

Shunday qilib, bo'ri qo'shiq aytibdi, qo'zichoq esa o'yinga tushibdi. U iloji boricha chiroyli o'ynashga harakat qilibdi. Qo'shiq tugaganda qo'zichoq unga:

- Juda yaxshi kuylar ekansiz, lekin, bundan ham baland kuylay olasizmi? - debdi.

- Ha-da, men o'rmondag barcha hayvonlardan ham balandroq ovozda kuylay olaman. Mana, qara!-bo'ri shunday deb, juda baland ovozda kuylay boshlabdi. Uning tovushini itlar eshitib qolishibdi va o'rmonda nima ro'y berganini bilish uchun yugurib kela boshlashibdi. Bo'ri itlarni ko'rgach, qochib qolibdi. Aqli qo'zichoq esa uyiga - onasining oldiga chopqillab ketibdi.

Ingliz tilidan
Malika
TO'RAXONNOVA
tarjimasi

QALBIM KUMUSH
QO'SHIQLAR CHIZAR

Madina MUZAFFAROVA

Qalbim mening yarqiroq olmos,
Yo'lim esa mukammal olam.
Yaqinroq kel, do'stim, iltimos,
Shoirmann-ku, axir chindan ham.

Fikrlarim panjara bo'ylab,
Sayr qildilar so'rgancha ko'mak.
Menga boshqa tasalli yo'qdir,
Lahzalarini ko'rishdandan bo'lak.
Itotli qizingman, Tangrim
Marhamating abadul abad.
Qaynoq cho'ldan men topib oldim
Bir yo'iki, u taqdir atalgan.
Ko'ngil kuylar yosh to'kar sassiz,
Ayon bo'lar bori sirlari.
Pinhon tutar oqshom quloqsiz,
Derazada zulmat nurlarin.
Oy shu'lasni nafis tin olar,
Daydib yurib derazam uzra.
Axir uning nafasin tinglab,
Qalbim kumush qo'shiqlar chizar.

Rus tilidan Go'zal Begim tarjimasi

OZ-OZ O'RGANIB
DONO BO'LUR
TULKINING TERISI
NEGA SHILINDI?

O'rmonda Ayiq bilan Tulki do'st edi. Bir kuni Tulki: «Yordam ber, Ayiqvoy, qarmoqqa tushdim», deb baqirdi. Ayiq lapanglagancha yugurib keldi, tulki esa «Voy, laqma-ey, ishondingmi?» deya uning ustidan kuldil. Bu gap o'rmondagi hayvonlarning qulog'iga yetdi va ular: «Tulkiga ishonma!» deb unga dashnom berishdi. Yana bir kuni Tulki Ayiqni ovqatga chaqirdi, Ayiq ishonib keldi, Tulki esa unga kuvachada ovqat berdi, Ayiq «meni mazax qilding!» deb chiqib ketdi. Bu gap ham barcha hayvonlarning qulog'iga yetib, ular Ayiqning laqmaligidan xafa bo'lishdi.

Bir kuni Tulki ovga chiqdi va tuzoqqa ilindi. Ovchi uni tutib olib, to'rxaltasiga soldi, Tulki dod deb, yordamga chaqirdi, lekin Ayiq: «Yana meni mazax qilmoqchi» deb uyasidan tashqari chiqmadi. Ovchi uyiga borib, Tulkining terisini shildi.

Qissadan hissa:

Kimki riyokorlik yoki yolg'onchilik qilar ekan, oxir-oqibat, shunga yarasha jazo topadi.

Aziz bolalar!

Riyokor shunday yomon kimsaki, u yaxhilarni to'xtovsiz ravishda aldaydi va shu bilan o'zgalar

s i r i m n i
bilishmaydi,
deb o'ylab
yuradi, aslida
esa u o'zini
a l d a y d i :
h a y o t d a
k u z a t i n g ,
b u n d a y
y o l g ' o n c h i
k i m s a l a r n i
h e c h
k i m h u r m a t
q i l m a y d i .



Rivoyat

XUSHOMADGO'y KIM?

U tulkidek ayyor, ilondek avrovchi kimsakim, birortaga ishi tushishi bilanoq yetti bukilib kulimsiraydi, uning har bir so'zini entikib qarshi oladi va u qanday ish qilmasin, ko'r-ko'rona maqtaydi. Aslida u juda pastkash kimsa, buni sinab ko'rish oson: u g'iybatni yaxshi ko'radi, og'zida so'z turmaydi, o'zini juda aqlli sezadi-yu, goho o'zi qilayotgan ishga o'zi tushunmaydi.

Buyuk kishilar xushomadni yomon ko'radilar, xushomad mayda kimsalarning ishi ekanligini yaxshi biladilar. Ilondon qo'rqma, tegmasang, o'tib ketadi, ammo xushomadchidan ehtiyot bo'lgan ma'qulroq, uning foydadan ko'ra, zarari ko'proqdir, deydilar. Hazrati Alisher Navoiy bobongiz ham bunday odamlarni adashganlar qatoriga qo'shadilar va aytadilar, ularidan nariroq yurgan yaxshidir, qo'lingdan kelsa odam bo'lgin, elni o'ylagin, deydi:

*Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Barcha buyuk insonlar insondagi xushomadgo'ylik va riyokorlikni qoralaydilar, ularni o'qib, o'zingiz xulosa chiqaring!

Xushomadgo'y odamlar surbetlarcha riyokorlikka hurmat bilan qaraydilar.

*Onore de Balzak,
Fransuz yozuvchisi.*

Birovga yoqish san'ati – aldash san'atidir.

*Lyuk de Vovenarg,
Fransuz yozuvchisi*

Xushomad sadoqatga mutlaqo yopishmaydi.

Erazm Rotterdamskiy

Inson hayotga tayyor bo'lib tug'ilmaydi, balki u o'qib-o'rganadi. Yaxshi va yomon ishlardan xulosa chiqarib, ezgu jihatlarni o'ziga qabul qilgan odamlar o'z yo'lini tez topadilar. Sizning ham, aziz bolalar, ana shunday chin insonlar qatoridan o'rningizni topishda yuqorida yozganlarimiz ozgina o'git bo'ladi, deb o'ylaymiz. Biror fikr tug'ilsa, albatta, bizga yozishni unutmang!

SHAXNOZA tayyorladi



2009

Tong yulduzi
23-mart

DIQQAT, DIQQAT!

YANGI SAHIFA!
YURTIMIZDAGI BARCHA
O'QITUVCHILARDI QQATIGA!

Qadrli ustozlar, «Tong yulduzi» nasaqat shogirdlaringiz, balki Sizning ham eng sevinli nashrlaringizdan biri ekanligiga ishonchimiz komil. O'quvchilaringiz tahririyatimizga yo'llagan maktublarida, gazetaning har bir sonini o'qituvchimiz bilan birgalikda o'qib boramiz, deb yozishadi. Biz bundan juda quvonamiz.

Bizda bir ajoyib fikr tug'ildi: gazetamizda o'qituvchilar uchun ham maxsus sahifa tashkil qilib, uni «Ustozdan maktub keldi» deb nomlasak-chi.

Shunday qilib, sahisangiz Sizga muntazir. Nasaqat ijodkor o'qituvchilarni, balki barcha ustozlarni hamkorlikka chorlaymiz. Sahifamizga o'z ijod namunalaringizdan yo'llaysizni, maktabda, sinfda, mahallada o'tkazilgan tadbir, tantana haqida yozasizni, qo'yingchi, bolalar va o'smirlar hayotiga oid barcha mavzudagi maktublariningizi yo'llashingiz mumkin.

Quyida ustozlardan kelgan maktublardan saralab, e'tiboringizga havola qilyapmiz.

Sahifamiz haqidagi fikrlaringizni bizga albatta yozib yuboring.

MEN HAM
BIR
MULISINGMAN,

BAHOR KELDI

Bodomlarning shoxida,
Kurtak una boshlabdi.
O'lkamizga bahoroy,
Ilk qadamim tashlabdi.

Qir-adirda boychechak,
Tomimizda qizg'aldoq.
Suv bo'yida majnuntol,
Taqib olibdi baldoq.

Ey Bahoroy, xush kelding,
Borliqqa qo'shib jamol.
Yashil sepingni yoyib,
O'lkamizda mangu qol.



Nodira IBRAGIMOVA

Ustozdan maktub keldi

ENDI O'ZIM
USTOZMAN

tamomlab, qadrondan maktabim tomon oshiqdim. Niyatimni bilgan maktabimiz rahbari Zurriyod opa Ahmedova meni iliqliq qarshi oldilar.

Hozirda ilk ustozim Sabohat opa Abdurahmonova va barcha ustozlarimga ergashib, ular bilan yelkama-yelka mehnat qilayotganidan behad mammunman. O'quvchilarimning menga «ustoz» deya murojaat qilishlari qalbimga bir olam quvonch bahsh etishi bilan birga zimmamga juda katta mas'uliyat yuklashini yaxshi bilaman. Ularning ham, ustozlarimning ham menga bildirgan ishonchlarini oqlash uchun astoydil harakat qilyapman.

Aziza UMAROVA

Inson aqlini tanigandan so'ng turli maskanlarga qadam ranjida qiladi. Ammo uning xotirasida bir umrga muhranib qoladigan bir mo'tabar dargoh bor: u ham bo'lsa maktab!

Men Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 146-umumta'l'm maktabiga ilk bor qadam qo'ygan kunimni sira unutolmayman. Ustozlarim mendan bor bilim va tajribalarini ayamadilar. Ayniqsa, sindifahbarimizning mehribonliklarini atymaysizmi?!

O'shanda murg'akkina qalbimda ulardek o'qituvchi bo'lish istagi tug'ilgandi. Bu ezgu niyat meni 1-Toshkent pedagogika kolleji tomon yetaklagandi. Kollejni muvaffaqiyatlidir.

SAVOL-JAVOB

– Dada, nega laylaklar,
Turar bitta oyoqda?
Ikkinchisini qo'ysa,
Kuyadimi oftobda?

– Laylaklar ham sen kabi,
O'ynab yirtsa paypog'in.
Uyalib ko'pchilikdan,
Yashiradi oyog'in.



Abdusattor G'OFUROV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
42-maktab direktori o'rinosari

deydi Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'l'm maktabi o'qituvchisi Asliddin BOLIQULOV:

Men qishloq maktablaridan birida o'quvchilarga saboq beraman. Maktabimizga keladigan matbuot nashrlari orasida «Tong yulduzi»ni alohida mehr bilan o'qib boraman. O'zim rahbarlik qiladigan 5-«A» sindifahbarimizning mana shu gazetaga obuna qildirdim.

O'quvchilarim orasida she'riyatga, rassomchilik, hunarmandchilik, tikuvchilikka qiziqadiganlari talaygina. Ularning qay bir kasbni tanlashlaridan qat'iy nazar, xalqimiz koriga yaraydigan insonlar bo'lib kamol topishlari uchun bor bilimim, tajribam, salohiyatimni ayamayman.

O'quvchilarim barcha fanlardan a'loga o'qish bilan birgalikda «Yangi avlod» ko'rik-tanlovida qatnashish uchun ham astoydil harakat qilyaptilar.

Zero, yurtimiz, qishlog'imiz kelajagi – bu bizning o'quvchilarimizdir.

Quyida ijodkor o'quvchilarimdan birining to'rtliklaridan yuboryapman. Sahifangizda chop etilsa, shogirdimning ilhomiga ilhom qo'shilardi.

MAFTUNA BIZNI QUVONTIRDIDI

Maktabimizda turli tanlovlardan, bellashuvlarda, oyliklarda o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib qolgan. Yil boshida «Eng she'rxon o'quvchi» tanlovini o'tkazib, g'oliblarni aniqlagandik. Yaqinda tuman «Yoshlar ijodiyoti markazi»da ana shu bellashuvning tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovdan ishtirok etgan o'quvchimiz Maftuna Bakirova o'zi yozgan, yod olgan she'rlarini ifodalib o'qib, 6-sinflar orasida g'olib deb topildi, hamda viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. Maktabimiz qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi Maftunaxonning she'rlari tuman, viloyat, respublika nashrlarida tez-tez chop etiladi.



Yaqinda viloyat «Sog'lom avlod markazi»da bo'lib o'tgan ushbu tanlovdan ham u faxrli o'rinni egallab, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi.

Maftunaning bu yutug'idan barchamiz faxrlandik.

Nodira Ibragimova ham Maftunaga havas qilib, she'rlar mashq qilib yurgan o'quvchilarimizdan. Uning «Bahor keldi» nomli she'ri sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.

Bahodir ALIMOV,
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi
36-umumiy o'rta ta'l'm maktabi ona tili fani
o'qituvchisi

Ona yurtning moviy ko'kida, Jilvalanar ko'klam quyoshi



Bolalik yillarimni eslasam, bobomning musofir qizi yodimga tushaveradi.

1944-yil. Kuzning oyog'i, qishning boshi. Biroq kun xiyla sovuq. Qishlog'imiz toqqa yaqin emasmi, hash-pash deguncha qish kelib qoladi. Qor qalin yog'adi. Ba'zi yillari u odam beligacha chiqib ketadi. Bu yil ham bobom aytmoqchi, qish qilichini sudrab kelayotganga o'xshaydi. Ayoz zabitiga olgach, ko'chaga chiqmay qo'ydim. Bobomning pinjiga kirib sandalga tiqilib oldim. Kolxozi kattalari el qatori bizga ham bir-ikki qop ko'sak bergen. Shuni chuvib berishimiz kerak. Har kilo chuvilgan paxtaga raisimiz bir tovoq makkajo'xori yoki kichkina ko'zachada lampamoy beradi.

Bir kuni kechki payt obi yovg'onimizni ichib bo'lib, bobom, katta enam uchovlon ko'sak cho'vib o'tirsak, kolxozi raisi Sharif tog'a kirdi. Bobom bilan uzoq hol-ahvol so'rashdi, tokchaning tagiga yoyib qo'yilgan ho'l paxtaga qarab, «Barakalla, Durjamol xola, qo'lingiz dard ko'rmasin!» dedi. Rais anchayin hammaning uyiga kiravermasdi, bemahalda nima qilib yuribdi ekan, deb hayron bo'ldik. Uning bobomda gapi bor ekan.

— Ziyoviddin og'a, urush qizib turibdi, xabaringiz bor, hademay dushman bir yoqlik bo'ladi, — dedi rais, — ana shu urush o'tgan yerlarda yuzlab bola ota-onasidan ayrib yetim bo'lib qolibdi. Shulardan bir to'pini bizga olib kelishayotibdi. Urush bosilguncha boqib berishimiz kerak ekan. Men sizga o'tinch bilan kirdim. Boyagi yetimlardan bitta-yarimtasini olarmiksiz, deb...

— Mening ham ikki o'g'lim urushda, — dedi bobom, kattasining bolalari yosh, bilasan, inim.

— Bilaman, bilaman, — dedi rais, — biz ham frontovikni olsasi, deb qo'ldan kelguncha yordam qilib turibmiz. Agar yetimlardan birini olsangiz, yana qarashamiz. Siz nuqul savob izlagan odamsiz, yo'q demang. Qishloqda obro'yingiz bor, otam...

Raisning maqtovi bobomni eritdi, shekilli, sal yumshadi.

— Bizga bir dona qiz bolani yozib qo'y. Musurmon bo'lsin.

Uyda pishgan tomoqdan yeb-ichadi-da.

— Albatta, oqsoqol!—deb quvonib ketdi rais, — sizga hech kim qazi-qartalik norin qilib bering, demaydi. Qulluq, otaginam, kam bo'lmang!

Rais chiqib ketdi. Biz musofir bolalar qachon kelar ekan, deb kuta boshladik.

Ular uch kundan keyin kelishdi. Bobom, katta enam uchovimiz ko'chaning boshidagi mo'rcha hammomga borib turdik.

Bir vaqt ubti yopiq ikki ot aroba kelib to'xtadi. Arobaldan birin-sirin men tengi, mendan kattaroq bolalar tusha boshladidi. Ustilaridagi kiyimlari uvada, bari boshlariga ro'mol o'rav olibdi. Qay biri o'g'il, qay biri qiz bola, bilib bo'lmaydi.

Hammomga avval qizlarni olib kirishdi. Bir vaqt saman otini yeldirib raisimiz kelib qoldi. U darrov o't yoqinglar, deb buyurdi. Ikki ayol bir quchoq shox-shabba olib kelib kattakon gulxan yoqishdi. Keyin ichkaridan qizlarning eski-tuski kiyimlarini olib chiqib olovga tashlashdi. Ungacha bizga o'xshab yetim asrab olmoqchi bo'lganlar ko'payib qoldi. Rais odamlarni ko'z qiri bilan sanab chiqib enamga o'girildi:

— Durjamol xola, ichkariga kirib qizingizni tanlab oling!

Enam bo'g'chasini ko'tarib mo'rchaga kirib ketdi. Birozdan keyin bir qizni o'rav-chirmab olib chiqdi. Uni besh yashar deyishgan ekan. Sirayam o'xshamaydi. Biram oriqli...

— Uyga ketayapmiz. Qiz yig'laydi, enam uni ovutadi:

— Yig'lama oppog'im, hozir issiqliqina sandalga borasan.

Senga qaymoqqa non to'g'rab beraman. Jo'xoridan go'ja pishirib qo'yanman, yig'lama.

Enam mehmonni sandal chetiga o'tqazib issiqliq choy berdi. Oldiga bir burda zog'ora non qo'ydi. Qiz yo'lda rosa och qolganmi, nonni ikki oshab yeb qo'ydi.

— Hozir go'ja olib kiraman, — deb enam o'midan turdi.

— Tomoqni ko'p berma, onasi, — dedi bobom, — yarim kosa bo'lsa yetadi.



— Nega, bobo?-dedim, — bechora ochiqib qolganga o'xshaydi-ku?

— Birdaniga ko'p yesa bo'kib qoladi, — dedim bobom, — bo'sh oshqozonni tomoqqa asta-asta o'rgatish kerak.

— Qiz ovqatini ichib uxlab qoldi. Biz tag'in ko'sak chuvishga kirishdik.

Sa'dulla SIYOYEV

(Boshi o'tgan sonlarda)



Yozar tabrik, yozar xat,
Qo'yadi hatto dastxat.

Tugmani bossang yurar,
Gapirar, labin burar.
Yana bossang qaytadi,
Qimirlamay yotadi.

Cho'ntagingda doim bor
Yuvib, urasan dazmol.
So'ng solasan o'ringga
Kerak bo'lar burunga.

Aylantirib turasan,
O'ngga, chapga burasan.
Ko'zlarin bo'lsa yo'lda
Qo'llaring doim (Rulda).

Ukam jonimga tegar,
Qanday so'z R ga tugar?
Bunaqa so'zlar ko'pdir
Sanab ber-chi o'zing bir,
Traktor, doktor, Botir
Barmoqda sanayotir.
Shoshilib aytar Abror
Mening ismimda ham bu
Men esa dedim bisyor
U bor deb aytdi takror.

(Davomi bor)

BERGIN FARXOD KETMONIMNI!



O, bolalik yilari!..

Bizni hayron ettingiz:

Eldik biz, yugurdik biz,

Orta qolib ketdingiz!..

Xayir endi o'smirlik,
Sendan o'sib ketishdik!

Ulg'ayib kuchka to'lib,

Etuk bo'lib Etishdik!

Xolqinazar XOLNIYOV

Endi etuk jismu jon,
Kuch sig'maydi bilakka!
Tomirlarda sizar qon!..
Talpinamiz yuksakka!..

Tanu jon sog', ko'ngil chog'!..
Bitdik yurak farmonin
Daryo yo'lin to'sgan tog', –
Bering Farxod ketmonin!

Xotira

Jizzaxlik iste'dodli qalamkash No'shar
Qarshiboyev hayot bo'lganida ayni shu bahor
kunlarida 60 yoshga to'lgan bo'lardi. U
qisqa, bor-yo'g'i qirq bir yil umr ko'rgan
bo'lishiga qaramay, barakali ijod qildi.

She'rlari o'z vaqtida respublika gazeta va
jurnallarida muntazam chop etilgan. 1993-yilda «Tong malagi» to'plami nashr qilindi.

Jizzax tumanidagi maktablardan biriga
shoir nomi berilgan. Uning kuyga solingan
«Jizzax bu» qo'shig'i davralarda bot-bot
yangrab turadi.

Quyida N.Qarshiboyevning she'rlaridan
birini hukmingizga havola qilamiz.

NAVRO'ZGA

Ona yurtning moviy ko'kida
Jilvalanar ko'klam quyoshi.
Shu quyoshdek harorat bilan,
Kirib kelding Navro'z – yil boshi!

Oltin baldoq bo'lib tovlanar
Maysalarga qo'ngan shabnamlar.
Uyg'onguvchi his kabi yerdan
Ko'tarilar namxush bir hovur.

Gala-gala uchgan turnalar
«Qur-qur»iga quloq osdim jim.
Sehrli tun qo'ynda yayrab,
Yulduz sanab bo'ldim munajjim.

Shivir laydi baxt-iqbolimdan
Mayin yellar quloqlarimga!
Va u so'ngsiz ilhom baxsh etar
Yaralajak qalb daftaringa.

Toleimning aksini ko'rdim,
O'riklarining oppoq gulida.
Navbahordek sehrga to'la
Bir his yonar qalbim tubida.

Xush kelibsani, Navro'zi olam!
Xush kelibsani, Yangi yil boshi!
Qo'llaringda guldan mo'yqalam,
Ey, o'lkamning tanti naqqoshi!

No'shar QARSHIBOYEV



Kavsar TURDIYEVA


LIFBE DA
NECHTA HARF
BOR?

Ko'yylak kiygan qo'g'irchoq
R harfiga o'xshar har chog'.

Ularsiz topmas javob
Birorta hisob-kitob.

Birdan o'nggacha qator
Askarchalar saf tortar.

Tutmang hadeb savolga,
Ishim o'xshar dazmolga.
Kerilmayman, maqtangiz,
Sayqallayman taxtangiz.
Yuraman olg'a tomon
Qipiqlar uchar har on.



Ko'p harakat qilsa ham
R ni aytolmas ukam.
Aytgin desam qor, bor, tor
Deydi asta qol, bol, tol.

Siyoh bilan to'ladi,
Daftar yuzin ko'radi.



2009 Tong yulduzi
23-mart

Yaqinda Sirdaryo viloyatida maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqasi boshlanadi



QISHLOQDAN CHIQQAN CHEMPIONLAR

yo'llanmasini qo'lga kiritgandi. Ayni kunda mutaxassislar tomonidan sirdaryolik shaxmatchi qiz oliy liga bahsidagi yosh ishtirokchi sifatida tanlandi.

Sarvinoz Quronboyeva hali 15 yoshga kirmagan bo'lsa-da, 18 yoshlilar o'rtasida ham eng yaxshi shaxmatchi deb topildi.

Yurtimizda iste'dodli shaxmat ustalari bisyor. Ammo eng bilimli, matonatl sportschigagina g'oliblikning shohsupasi nasib etadi.

qatnashish huquqini ham qo'lga kiritdi.

Sarvinozni oldinda yana turli musobaqalar kutmoqda. Ulardan biri Guliston shahrida o'tadigan «Umid nihollari» musobaqasidir. Sarvinoz shaxmat bo'yicha bir necha bor O'zbekiston championi bo'lgan qashqadaryolik sport ustasi Sarvinoz Ergasheva havas qiladi. Sarvinoz Ergasheva «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» musobaqalarining barchasida oltin medalga erishgan. Yaqinda Sirdaryoda maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqasi boshlanadi. Biz Sarvinozga ana shu musobaqada muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida kamolga yetgan Sarvinoz fevral oyida O'zbekiston championatida birinchi liga bahslarida ham zafar quchgandi. U 9 imkoniyatdan 7 ochko jamg'arib, oliy liga

Ortda qolgan 2008-yil ham uning hayotida muhim o'rinn tutadi. 14 yoshgacha O'zbekiston championi bo'lgan qahramonimiz Eronda o'tgan Osiyo birinchiligidagi kumush medalga erishib, o'zbek shaxmat ishqibozlarini xursand etgandi.

2009-yil boshida 16 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida ham barcha raqiblarini ortda qoldirib, 9 imkoniyatdan 8,5 ochko jamg'ardi va noyabr oyida Turkiyada o'tadigan jahon championatida

Turkiyada o'tadigan jahon championatida

NEGA SPORTNI TANLAGANSIZ?



Ma'ruf Toshtemirov ikki yildan buyon taekvando ITF bilan shug'ullanadi. Bungacha u yunon-rum kurashi mashg'ulotlariga qatnagan.

— Taekvandoning go'zalligi shundaki, — deydi Ma'ruf biz bilan suhbatta. Raqibni yengish uchun ikki daqiqa davomida uning nima qilmoqchi ekanligini oldindan sezish, himoyalanib, aniq zarbalar yo'llash kerak. Bu esa sportchidan nafaqat qo'l va oyoqlarini, balki aqlni ham ishga solishni talab etadi. «Til» mashqlarini bajarish esa sizni anqlikka yetaklaydi. Jamoaviy «til»da besh sportchi mashqni bir vaqtida to'g'ri bajarishi lozim. Bir kishining xatosi ham jamoaga qimmatga tushadi.

— Mashqlarning samarasi musobaqalarda ko'rindi deyishadi...

— 2007-yili Olmaliqda o'tgan turnirda 40 kg vaznda bronza medaliga erishdim. O'tgan yili «Jar» sport majmuasida tashkil etilgan O'zbekiston championatida «massogi»dan 45 kg vazn toifasida bronza jamoaviy «til» mashqlarida kumush medalga

Ma'ruf Toshtemirov ikki yildan buyon taekvando ITF bilan shug'ullanadi. Bungacha u yunon-rum kurashi mashg'ulotlariga qatnagan.

— Taekvandoning go'zalligi shundaki, — deydi Ma'ruf biz bilan suhbatta. Raqibni yengish uchun ikki daqiqa davomida uning nima qilmoqchi ekanligini oldindan sezish, himoyalanib, aniq zarbalar yo'llash kerak. Bu esa sportchidan nafaqat qo'l va oyoqlarini, balki aqlni ham ishga solishni talab etadi. «Til» mashqlarini bajarish esa sizni anqlikka yetaklaydi. Jamoaviy «til»da besh sportchi mashqni bir vaqtida to'g'ri bajarishi lozim. Bir kishining xatosi ham jamoaga qimmatga tushadi.

— Mashqlarning samarasi musobaqalarda ko'rindi deyishadi...

— 2007-yili Olmaliqda o'tgan turnirda 40 kg vaznda bronza medaliga erishdim. O'tgan yili «Jar» sport majmuasida tashkil etilgan O'zbekiston championatida «massogi»dan 45 kg vazn toifasida bronza jamoaviy «til» mashqlarida kumush medalga

IRODAGA KUMUSH, HULKARGA BRONZA

Toshkent viloyati sharafini himoya qilayotgan Alisher Bekmurodov ikkinchi va Oltinbek Sobirov esa urchinchi o'rinni egalladi.

12 yoshli qizlar bahsi toshkentlik Nozima Oripovanning g'alabasi bilan yakunlandi.

Farg'onalik shaxmatchilar Nodira Parpiyeva ikkinchi, Gulruh Tohirjonova esa urchinchi o'rinni egalladi.

O'g'il bolalar o'rtasida esa poytaxtlik Oleg Artemenkonig oltimish nafardan ziyod ishtirokchisi orasida mag'lubiyatga uchramagan yagona shaxmatchi bo'lganini alohida ta'kidlash mumkin. U to'qqizta uchrashuning sakkiztasida zafar quchdi, bir marotaba durang o'ynadi.

18 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasidagi championni aniqlash uchun qo'shimcha uchrashuv o'tkazishga to'g'ri keldi. Sarvinoz Quronboyeva va surxondaryoliq Iroda Ibrohimova oltitadan g'alaba va uchtadan durangga erishib, jami 7,5 tadan ochko jamg'argani bois g'olib taybreyda (qo'shimcha o'yin) aniqlandi. Ikki partiyyada zafar quchgan Sarvinoz birinchi, Iroda esa ikkinchi o'ringa loyiq topildi.

Bronza medali yetti ochko jamg'argani farg'onalik Hulkar Tohirjonovaga nasib etdi.

18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar

o'rtasida samarqandlik Jamshid Mustafoev g'alaba qozondi. Iqtidorli sporchi to'qqizta uchrashuvdan sakkiz yarim ochko to'pladi.

Qashqadaryo viloyati sharafini himoya qilgan Akmal Fayzullayev championatni ikkinchi o'rinda yakunladi. Buxorolik Ravshan Hamroyev esa kuchli uchlikdan joy oldi.

Championatda birinchi o'rinni egallagan iqtidorli shaxmatchilar kuz faslida Turkiyada o'tadigan jahon championatida ishtirok etishadi.



*Argon tortish xonbandilik o'quvchilarning Navro'z oldi o'yintaridan biri.
Forishlik bolalar kuch sinashni ayni bahordan boshlashadi.*

erishdim. Shuningdek, hozirgacha olti marta respublika taekvando ITF assosiatsiyasi mutaxassisleri ko'z o'ngida turli rangli belbog'larga imtihon topshirdim.

Imtihon payti «til» mashqini bexato bajarishimiz shart.

Sariq va yashil belbog'talab etadigan bosqichlardan o'tdim. Yaqinda qizil belbog'ning birinchi shartini bajarib, ikkinchisi uchun o'zimga yo'l ochdim. 2009-yil yakuniga qadar qora belbog' sohibi bo'lishni dilimga tukkanman. Tinimsiz mashq jarayonida bunga erishaman deb niyat qilganman.

Darhaqiqat, o'g'il-qizlarimiz borasida sharq yakkakurashi sirlarini o'rganayotganlari ko'p. Zero, sohibqiron Amir Temur bobomiz ham askarlari, fuqarolari orasida sharqona yakkakurashlar usullarini o'rganishni keng targ'ib qilgan. Ko'z tegmasin, el kori uchun yaratdigan mard va jasur avlod voyaga yetmoqda. Ularning fikrlashi, tafakkuri, o'ziga bo'lgan ishonchi bizni quvontirmoqda.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

SPORT **SPORT** **SPORT**

YAXSHI

Aziz bolalar!

Esingizda bo'lsa, Mamasoli Jumaboyevning «Bolalar adabiyoti» (darslik – majmua) kitobining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan qayta nashr etilgani-yu, bu to'g'rida keyingi sonlarimizda to'liq ma'lumot berishni va'da qilgan edik.

Kitob buyuk xazina. Agar unga o'z sohasining chin zargari jilo bergan bo'lsa, yanada ziynat topadi. Darvoqe, yangi nashrn odatdagagi yig'ma qo'llanmalardan biri bo'lsa kerak, deb qo'lga olgandim, lekin uning avvalo tartibi, bolalarga moslab tuzilgani, ixchamligi maq'ul bo'lib, ko'ngilga o'tirdi: bolalar folklori, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, masallar, ertaklar siz aziz bolalarga sandiq-sandiq xazina beradi.

Undan so'ng Alisher Navoiy hazrati bobongizdan tortib, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Hakim Nazir, Qudrat Hikmat, Nosir Fozilov, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar kabi b o l a l a r yozuvchi-

KITOBBLAR

larining boy olami – qiziq asarlari bilan tanishasiz. Yana bitta muhim jihat unutilmagan, siz aqli bolalar dunyo adabiyotidan ham xabardor bo'lishingiz kerakligini hisobga olib, muallif sizlarni jahon adabiyotining yirik vakillari – «Qizil shapkacha», «Etik kiygan mushuk» kabi mashhur ertaklari bilan tanilgan fransuz shoiri va tanqidchisi Sharl Perro, «Gulliverning sayohatlari» muallifi Jonatan Swift, shuningdek, aka-uka Grimmilar, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Xans Kristian Andersen, Nekrasov, Marshak ijodlaridan ham namunalar berib o'tganki, ulardan xabardor bo'lishingiz o'zingizga, faqat o'zingizga foyda.

Alisher Navoiy bobongiz aytganlaridek, ilm-fan cho'qqilarini zabt etmoq uchun yoshlikdan astoydil o'qib-o'rghanish kerak. Shu jihatdan qaraganda, ertak eshitgan va o'qigan, kitobga mehr bergan bola bora-bora yaxshi tarbiya topib, hayotda chin insonlar qatorida bo'lishga oshiqadi. Birgina ana shu kitobni o'qib chiqish jarayonida Siz, albatta, undan o'zingizga kelajakda zarur bo'ladigan juda katta ibratli o'rnlarni topasiz va mazkur kitobni o'qib chiqqangizdan mamnun bo'lasiz. Shu kitobga tartib bergan, uni bosib chiqarishda bosh-qosh bo'lgan akalaringiz, opalaringiz nomiga ikki og'iz iliq gap aytib qo'yishni ham unutmang, zero, bir og'iz shirin so'zingiz ularni kelgusida yanada kattakatta ezgu ishlarga undaydi. Yangi kitob bizga ham, sizlarga ham muborak bo'lsin!

O'z muxbirimiz

BOIR

Imo-rat	Quduq-lar birlash-gan suv yo'lli	Suv-chi	Qarag'ay-dosh mevali daraxt	Yo-qilg'i	Surt-kov moy	Urf, udum	O'r-mon mah-suli, yo-qilg'i	Qo'y-lar podasi	Kumush-bibi-ning yori	Bo'lin-mas zarra	Qamish-dan to-qilgan to'shama
Quruv-chi	Turkiya-dagi shahar	Yuk tashish anjomi	Metall pul	Katta xona	Bayon qilish	"Gap-don" qush	Musiqa yo-zuvi	Harbiy qism	To'x-tash joyi	Qaz-noq	G'al-la

F.ORIPOV tuzdi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./Faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 67843
Buyurtma N: J 7097

DIQQAT, YANA TANLOV! «KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

Bolalar-e, bolalar, eshitmadim demanglar! Tanlovdan bexabar qolib, g'oliblarga atalgan ajoyibu g'aroyib sovg'alardan quruq qolmanglar. Qnday tanlov deysizmi?

Gazetamizda bilimlaringizni yanada boyitish, ma'naviyatingizni yuksaltirish, o'zingizni zukko, tilingizni burro qilish maqsadida gazetamizda kitobxonlar tanlovin o'tkazishga qaror qildik. «Eng kitobxon o'quvchi» degan nomga sazovor bo'lib, sirli sovg'alarni qo'lga kiritay desangiz, shoshiling: o'qigan kitoblarining sonini, nomlarini keltirib, o'zingiz haqingizda to'liq ma'lumot yozing.

Tanlovimizning asosiy bir sharti bor: maktabingizdagi eng kitobxon o'quvchi ekanligingiz sinf rahbarining hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Maktublaringizni tahririyat manziliga yo'llang!

BIZNING BOG'CHA – «DO'MBOQCHA»



Bog'chamizning nomi «Do'mboqcha». Uning hovlisi juda katta, chiroli, rang-barang o'simliklar, ertak qahramonlari rasmlari bilan bezatilgan. Guruhimizda o'rtoqlarim bilan o'yinchoqlar o'ynaymiz, mashg'ulotlar o'tamiz, rasmlar chizamiz, DVDda multfilmlar ko'ramiz, ertaklar eshitamiz, hovlida sayr qilamiz. Menga ayniqsa, raqs va ingliz tili to'garaklari yoqadi. Eng sevimli mashg'ulotim esa kompyuter o'ynash va arg'imchoqlar uchish.

Ayrim bolalar «Bog'chaga bormayman...», deb yig'lashadi. Meni esa bog'chadan ketgim kelmaydi.

Yaqinda bog'chamizda bahor bayramini nishonladik. Men mudira opamiz Nozima Oxunovaga atab she'r aytdim. Keyin katta guldaста berib ularni tabrikladim.

«Nega onasiga emas, mudiraga?..» deb hayron bo'layapsizmi? Chunki, mudira opamiz onam bo'ladilar-da!

Abdullo AKBAROV,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 411-bog'cha tarbiyalanuvchisi

JAJJI SAMOLYOT

Sarlavhani o'qib, hayron bo'lishingiz mumkin. Lekin shunday samolyot ham bor ekan.



Bir kishi sig'adigan samolyotning uzunligi 2,69 metr, qanotlarining kengligi 1,68 metr va og'irligi 179,6 kilogramm. Mazkur samolyot amerikalik konstruktur Robert Starr tomonidan yaratilgan.

MITTI VIDEOKAMERA VA KASSETA


Erinmagan odamlar nimalarni o'ylab topishmaydi-ya!

Ok Ridj (Tennessee shtati, Amerika Qo'shma Shtatlari) milliy laboratoriyasida o'lchami 2,54x5,08x1,27 santimetr bo'lgan mitti videokamera ishlab chiqarilishi yo'lg'a qo'yildi.

Sonu firmasiga tegishli diktafonlar uchun mo'ljallangan raqamli kassetalarning o'lchami 30x21x5 millimetri tashkil etadi.



LIVORD



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./Faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 67843
Buyurtma N: J 7097